

О‘ЗBEK TILIDA SO‘Z-YUKLAMALARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Rustamova Iqbol Aktamovna

SamDU 2-kurs agistranti

Ilmiy rahbar: prof. R.R.Sayfullayeva

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan faqat, axir, hatto, xuddi kabi so‘z yuklamalarining matn tarkibida kelganda turli semantik-stilistik ma‘nolarni ifodalashi hamda bu yuklamalar bilan ma‘nodosh bo‘lib kela oladigan so‘zlar misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Semantik, stilistik, ma‘nodoshlik, faqat, axir, hatto, xuddi, “oralik uchinchi” hodisasi.

Абстрактный. В статье только, наконец, даже одни и те же словесные нагрузки, существующие в узбекском языке, при появлении в тексте выражают разные семантические и стилистические значения, а слова, которые могут быть синонимами этих нагрузок, выделены с помощью примеров.

Ключевые слова. Смысловое, стилистическое, смысловое, только ведь даже, вроде бы, "промежуточное третье" событие.

Abstract. In the article, only, finally, even the same word loadings that exist in the Uzbek language express different semantic and stylistic meanings when they appear in the text, and the words that can be synonymous with these loadings are highlighted with the help of examples.

Key words. Semantic, stylistic, semantic, only, after all, even, like, "intermediate third" event.

Tilshunosligimizda yordamchi so‘zning leksema va qo‘shimcha orasida «oralik uchinchi» bo‘lib, ham leksema, ham grammatik morfema xususiyatini o‘zida mujassamlashtirishi to‘g‘risida aytilgan.¹ Ko‘pchilik tilshunoslar yuklamalarni shaklan leksemaga, mazmunan esa qo‘shimchaga o‘xshatishadi (qiyos: Gullarni onamga/onam uchun oldim.) Shu sababli ham til tizimida yordamchi so‘zlarning o‘rni turlicha baholanadi - ayrim olimlar ularni qo‘shimchaga, ayrimlari nutq bo‘lakchasiga, ba‘zisi yordamchi so‘zga kiritishadi. Yordamchi so‘zning so‘zmi, qo‘shimchami yoki mustaqil so‘zning yordamchi so‘z bilan bog‘lanishi so‘z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozarli mavzu bo‘lib qolmoqda. Buning sababi shundaki, yordamchi so‘z guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham «ma‘noviy mustaqillik», ham «ma‘noviy nomustaqillik» xususiyatiga ega. Masalan, tortib

¹ Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. – 266 b.

mustaqil soʻz sifatida ravishdosh kabi qoʻllaniladi: Baliq qarmoqni bir tortib, qochib ketdi. Maktab oʻqituvchisidan tortib olimgacha — hammasi «dono!» Hammasi — «daho!» (Oʻ.Hoshimov) gapida yordamchi soʻz vazifasida kelgan. Tortib mustaqil va yordamchi maʼnoga ega boʻlishiga qaramay, mustaqil leksema qatoriga kiradi. [Uchun], [sayin], [uzra], [kabi], [va] ga oʻxshagan yordamchi soʻzlar esa aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatni yuzaga chiqarib, yordamchi soʻz guruhidan joy oladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, «alohida qoʻllanila olish yordamchi soʻzni mustaqil soʻz bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatni ifodalash kabi umumlashgan maʼno uni morfemaga, qoʻshimchaga yaqinlashtiradi, soʻz va qoʻshimcha ziddiyatida «oralik uchunchi» vazifasida keladi. Yordamchi soʻzni mustaqil soʻzga quyidagilar yaqinlashtiradi: a) shaklan alohida ajralib turish; b) lugʻaviy maʼnoning mavjudligi (ot-koʻmakchi, feʼl koʻmakchida); d) koʻpincha ularning mustaqil soʻzlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi. Yordamchi soʻzning grammatik qoʻshimchaga oʻxshash tomoni ularning morfema kabi mustaqil nominativ funktsiya bajarishligi (ammo, va, sayin, kabi), qoʻshimchasimon shaklda boʻlishi (-u, -yu, -da; -ki/-kim) va boshqalar. Biroq yordamchi soʻzning grammatik morfemadan farqli tomoni shundaki: 1) ular ajralgan holda gap boʻlagi, soʻz birikmasi va gapda sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat, ayniqsa, koʻmakchi uchun xos. 2) gap boʻlagi yoki gapni oʻzaro bogʻlaydi. Bunday funktsiyada, asosan, bogʻlovchi va yuklama keladi; 3) soʻroq, inkor kabi gap maʼnosini ifodalashga xizmat qiladi (yuklama). Yordamchi soʻz mustaqil soʻz va soʻz-gap oraligʻida «oralik uchunchi» maqomini oladi.

Oʻzbek tilida soʻz shaklidagi yuklamalar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: faqat, axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, xuddi, na... na kabi sof hamda aqalli, atigi, aksincha, ana, aynan, ayni, yolgʻiz, tugul va b.kabi nisbiy yuklamalar kiradi.

FAQAT. Bu yuklama matndagi oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzlarni chegaralab, ajratib koʻrsatish uchun ishlatiladi. Masalan: - Yangi odammiz. Qoʻni-qoʻshnilar bilan kirish-chiqishimiz yoʻq hisob. Faqat Qurbonoy xolani tanirdik. (Oʻ.Hoshimov). Bu misolda faqat yuklamasi oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzni chegaralab kelayapti, yaʼni ular Qurbonoy xoladan boshqa hech kimni tanimasligini faqat Qurbonoy xolanigina tanishini ayirib chegaralab koʻrsatyapti. Faqat yuklamasi –gina, yolgʻiz, xolos yordamchilari bilan sinonimlik qatorda tura oladi. Masalan: 1) **yolgʻiz bilan:** - Shahnoza yana... shuni sezdi... Rustam akasi raqs tushayotgani yoʻq... nola chekyapti... Alamli, iztirobli nola! Faqat oʻzi-yu Shahnoza tushunadigan nola.. (Oʻ.Hoshimov). Qiyoslang: Shahnoza yana... shuni sezdi... Rustam akasi raqs tushayotgani yoʻq... nola chekyapti... Alamli, iztirobli nola! Yolgʻiz oʻzi-yu Shahnoza tushunadigan nola..; Yillar oʻtib, odamning qiyofasi, gavdasi, hatto gapirish ohangi ham oʻzgarib ketishi mumkin. Faqat koʻzi oʻzgarmaydi. (Oʻ.Hoshimov).

Qiyoslaymiz: Yillar o'tib, odamning qiyofasi, gavdasi, hatto gapirish ohangi ham o'zgarib ketishi mumkin. Yolg'iz ko'zi o'zgarmaydi; 2) **-gina bilan:** Qurbonoy ayvon o'rtasida to'xtab qolgan, shapkalining niyati nimaligiga aqli yetmas, hamon qo'rquvdan yuragi gursillab urar, faqat bir narsani aniq bilar edi: bu yomon odam.. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Qurbonoy ayvon o'rtasida to'xtab qolgan, shapkalining niyati nimaligiga aqli etmas, hamon qo'rquvdan yuragi gursillab urar, bir narsanigina aniq bilar edi: bu yomon odam. 3) **xolos bilan:** Ichkaridan sado chiqmas, faqat ahyon-ahyonda qog'ozlarning shitir-shitiri eshitilib qolardi... (O'.Hoshimov).; Qiyoslang: Ichkaridan sado chiqmas, ahyon-ahyonda qog'ozlarning shitir-shitiri eshitilib qolardi, xolos.; Paxtadagi voqeadan keyin meni o'qishdan haydashga va'da bergan komsomol sardori Sanjar! O'zgarmabdi. Sal to'lishibdi,xolos.; Qiyoslang: Paxtadagi voqeadan keyin meni o'qishdan haydashga va'da bergan komsomol sardori Sanjar! O'zgarmabdi. Faqat sal to'lishibdi. 4) **bir bilan:** Komissar kechasi bilan to'lg'anib chiqdi. Uyda bir o'zi qolgan. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Komissar kechasi bilan to'lg'anib chiqdi. Uyda faqat o'zi qolgan. 5) **bor-yo'g'i so'zi bilan:** Bola onasi boshini opichlab bordi. Ovoz berib, yig'lay, dedi. Onasidan qo'rqdi. Onasi oyoqlarini chimchilab olishidan qo'rqdi. Bola bor-yo'g'i ing-ing etib bordi. (T.Murod). Qiyoslang: Bola faqat ing-ing etib bordi. 6) **atigi bilan:** – Bolangning qilg'ini endi ko'ryapsanmi? A, endi ko'ryapsanmi? Hech nima bo'lgani yo'q. Hamma yoq tinch. Atigi to'y buzildi, kuyovning chakkasi yorildi. (Said Ahmad). Qiyoslang: – Bolangning qilg'ini endi ko'ryapsanmi? A, endi ko'ryapsanmi? Hech nima bo'lgani yo'q. Hamma yoq tinch. Faqat to'y buzildi, kuyovning chakkasi yorildi. Demak, faqat yuklamasi yolg'iz, xolos, -gina, atigi, bor- yo'g'i kabi yordamchi vositalar bilan ma'nodoshlikni hosil qila olar ekan. Ammo ushbu birliklar bir-birining o'rnida qo'llanganda aynan bir xil ma'no nozikliklarini bera oladi deya olmaymiz. Ularning har biri nafaqat jumladagi qo'llanish o'rniga ko'ra, balki ayirish, chegaralash ma'nosini ifodalashiga ko'ra ham farqlanadi.

AXIR. Bu so'zning O'TILda ikki xil so'z turkumida kelishi, ya'ni ravish va yuklama vazifalarida qo'llana olishi aytib o'tilgan. Axir so'zi ravish vazifasida kelganda "oxiri, provardida, nihoyat" kabi ma'nolarni ifodalaydi, yuklama vazifasida qo'llanganda esa ma'noni kuchaytirish va ta'kidlash uchun qo'llanadi.

Masalan: Qazisan, qartasan, axir zotingga tortasan! -dedi kampir omborni qulflayotib.(A.Qahhor).² Ushbu keltirilgan misolda axir so'zi ravish bo'lib kelyapti. Axir so'zi yuklama vazifasida kelganda o'zi bog'lanib kelgan sintaktik qismga ko'proq ta'kid ma'nosini beradi. Bu yuklama so'zlovchining voqelikka munosabatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yuklamaning jumladagi ahamiyatini bilish uchun u ishtirok etgan jumlaning qo'llangan va qo'llanmagan holda qiyoslab

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 679 б.

ko'rishning o'zi kifoya. Bu yuklama o'zi ishtirok etgan matndagi gumon ma'nosini ta'kidlaydi: - O'zi qayoqda ekan? — Unisini bilmadim. O'sha xatga bitgandir axir, qayerdaligini. (Said Ahmad); Mayli, baxtingizni sinab ko'ring. Bu kunlar ham o'tib ketadi. Biron yorug' kun bordir axir.(Said Ahmad). Axir yuklamasi o'zi qatnashgan jumladagi so'roq mazmunini ta'kidlab keladi: - O'ylasang-chi, Dildor, dadam qarib qolgan narsa. Besh kunligi bormi, yo'qmi, nima qilay, tashlab ketaymi, axir? (Said Ahmad); Yutqazganni «taka» qilib xarrak tagidan o'tkazadilar. («Vaqtini o'ldirish» kerakmi axir?). (O'.Hoshimov).; Puli bilan nima ishing bor! — U qo'lini paxsa qildi. — Pskentning o'ziga borasanmi axir? Matn tarkibida —ku bilan birgalikda qo'llanganda, ta'kid ma'nosini kuchaytiradi: Jonholatda o'zimni orqaga tashladim. Axir bu... Shahnoza-ku. (O'.Hoshimov); Tanidim! Axir bu — o'zimizning «vojak»-ku.; Axir... Axir bu o'zimning tomorqamdagi daraxt-ku. Mana qarang, qurib qolgan.; Endi ko'z o'ngimga Risolat opa keldi. Axir maktabdagi eng chiroyli, eng shirinso'z o'qituvchi shu — o'zimizning Risolat opamiz-ku!; Dallol shu yerning odami-ku. Topilar axir, — derdi oyim menimi, o'zinimi yupatib. (O'.Hoshimov). kabilar. Axir yuklamasi -ku endi kabi ayrim vositalar bilan sinonimlikni hosil qiladi. Ammo shunga alohida to'xtalib o'tish kerakki, matndagi ta'kid ma'nosini ifodalashda axir yuklamasi o'ziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

НАТТО. Matndagi ta'kid va kuchaytiruv ma'nolarini o'ta kuchli ifodalashi bilan boshqa kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridan ajralib turuvchi bu yuklama shu xususiyatiga ko'ra boshqa yordamchi vositalar bilan ma'nodosh bo'la olmaydi. Ya'ni bu yuklama ifodalagan ma'noni boshqa hech qaysi birlik yuzaga chiqara olmaydi deyishimiz mumkin. Faqatgina hatto yuklamasini o'zining ekvalenti hattoki bilan almashtirib qo'llash mumkin: Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim. Yong'oqqa bog'lab qo'yilgan echkini ikki marta sug'ordim, hovlidagi supaga to'shalgan bo'yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb qo'riqlab o'tirdim... Hatto roqatkamning rezinkasini uzib, ukamga ishtonbog' qilish uchun berdim. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim. Yong'oqqa bog'lab qo'yilgan echkini ikki marta sug'ordim, hovlidagi supaga to'shalgan bo'yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb qo'riqlab o'tirdim... Hattoki roqatkamning rezinkasini uzib, ukamga ishtonbog' qilish uchun berdim. Bu keltirilgan misollarda hatto yuklamasi o'rnida hattokini qo'llasak bo'ladi. Ammo shu haqiqatni rad eta olmaymizki, hattoki yuklamasi hattoga nisbatan gap mazmuniga kuchliroq ta'kid ma'nosini ifodalaydi. Lekin bunday almashtirish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi: Hozir hech kimni, hatto onamni ham ko'rishga ko'zim yo'q edi. (O'.Hoshimov). misolida hattoni hattokiga almashtirish g'alizlikni yuzaga keltiradi. Ba'zan matn tarkibida bu yuklamalarni ayrim yordamchi vositalar bilan almashtirish mumkindek tuyuladi. Masalan ta'kid ma'nosini ifodalovchi nahot, nahotki yuklamalari bilan.

To'g'ri, nahot, nahotki yuklamalari ham jumladagi ta'kid ma'nosini ifodalab kelish bilan birga matn mazmuniga tajjub ma'nosini ham qo'shadi: 1. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? (O'.Hoshimov). 2. Nega shunaqa? Hattoki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Bu keltirilgan misollarning birinchisida nahotki yuklamasi qo'llanilib, ritorik so'roq gapni yuzaga keltib, o'ta kuchli norozilik kayfiyatidagi tajjubni ifodalayapti. Ikkinchi misoldagi hattoki yuklamasi ifodalagan ma'noda ham kuchaytiruv, ta'kid ma'nolari bor, ammo kuchli tajjub yo'q. Hatto yuklamasining matndagi vazifasi ham har- xildir. Ba'zi o'rinlarda jumladagi ta'kidni anglatasa, ba'zilarida esa ta'kidlash bilan birga uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini mantiqan bog'lab ham keladi. Masalan: Uni har ko'rganda oyim aytib bergan Xizr esimga tushadi. Nega deganda Ermon buvaning sochi ham, soqoli ham, hatto ko'ziga qayrilib tushgan o'siq qoshlarigacha oppoq. (O'.Hoshimov). Bu gapda hatto yuklamasi mantiqan uyushiq bo'laklarni bog'lab kelayapti deyishimiz mumkin. Qiyoslaymiz: Uni har ko'rganda oyim aytib bergan Xizr esimga tushadi. Nega deganda Ermon buvaning sochi ham, soqoli ham, hatto ko'ziga qayrilib tushgan o'siq qoshlari ham oppoq. Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, hatto yuklamasi nutqimizda faol qo'llanuvchi o'ziga xos yordamchilar sirasiga kiradi.

XUDDI. Bu yuklamani ba'zi tilshunoslarimiz aniqlov yuklamalari sirasiga kiritishsa, ³ba'zilar o'xshatish-qiyoslash yuklamalari deya tasnif berishgan.⁴ Bu tasniflardagi ikki xillik uning semantik maydoni kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun xuddi yuklamasi jumla mazmunini aniqlashga ham, o'xshatishga ham, qiyoslashga ham xizmat qiladi. Xuddi yuklamasi aniqlash mazmunida qo'llanadi: Xuddi o'sha ma'rakadan uch kunmi-to'rt kun ilgari g'alati voqea bo'ldi.; Bir mahal otin xola (Sepkilli xolaning qo'li egriligidan shikoyat qilgan, biz bilan folbinnikiga borgan xuddi o'sha semiz otin xola) oq sholro'mol yopingan, atlas ko'ylagi ustidan oldiga uqa tutilgan nimcha kiygan kelinchakni yetaklab ostonaga olib chiqdi. (O'.Hoshimov). U o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatishda naq yuklamasi va aynan so'zi bilan ma'nodosh bo'la oladi. 1) **aynan bilan:** Ehtimol, oradan ikki oycha o'tib Sepkilli xola tilla tish qo'ydirmaganida, buning ustiga xuddi o'sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham, bu gaplar ham unutilib ketgan bo'lardi. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Ehtimol, oradan ikki oycha o'tib Sepkilli xola tilla tish qo'ydirmaganida, buning ustiga aynan o'sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham, bu gaplar ham unutilib ketgan bo'lardi. 2) **naq bilan:** Uning moli xuddi magazindagi singari qat'iy narx bilan sotiladi. Qiyoslaymiz: Uning moli

³ Ўзбек тили грамматикаси.1- том.-Б.580-581.; Шоабдураҳмонов Ш. Ва бошқ. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. 1- қисм. – Б.437; Турсунов У. Ва бошқ. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. – Б.390

⁴ Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. – 278 b.

naq magazindagi singari qat'iy narx bilan sotiladi. Ushbu yuklama **qiyoslash, chog'ishtirish, o'xshatish** ma'nolarini ifodalab kelganda quyidagi yordamchi vositalar bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. 1) **go'yo bilan**: Akam bilan ketma-ket xuddi quvlagandek, qop-qora lo'li xotin kirib keldi. (O'.Hoshimov). Qiyoslaymiz: Akam bilan ketma-ket go'yo quvlagandek, qop-qora lo'li xotin kirib keldi. 2) **go'yoki bilan**: Endi qo'rquv o'rnini allaqanday qiziqish egalladiyu angrayib qoldim. Hammamiz xuddi mo'jiza kutgandek qotib qolgandik. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Endi qo'rquv o'rnini allaqanday qiziqish egalladiyu angrayib qoldim. Hammamiz go'yoki mo'jiza kutgandek qotib qolgandik. 3) **ayni, aynan bilan**: Qarasam, xuddi o'zim o'ylagandek: o'rindiqning yarmi loyga belanibdi.; Xuddi shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Qarasam, aynan o'zim o'ylagandek: o'rindiqning yarmi loyga belanibdi.; Ayni shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos. 4) **aftidan so'zi bilan**: Oyim ham toliqib ketdi shekilli, nuqul atrofga javdiraydi. — Dallol topmasak bo'lmaydi shekilli, o'g'lim, — dedi ruhi tushib. Xuddi shuni kutib turgandek, telpaging quloqchinini kuya yegan, paxtali shimining tizzasigacha go'ng bo'lib ketgan kishi paydo bo'ldi. (O'.Hoshimov). Qiyoslaymiz: Oyim ham toliqib ketdi shekilli, nuqul atrofga javdiraydi. — Dallol topmasak bo'lmaydi shekilli, o'g'lim, — dedi ruhi tushib. Aftidan shuni kutib turgandek, telpaging quloqchinini kuya yegan, paxtali shimining tizzasigacha go'ng bo'lib ketgan kishi paydo bo'ldi. 5) **misli, misoli bilan**: Akamning allaqaysi kitobida olti qo'lli odamning rasmini ko'rgan edim. G'ira-shirada jiydalar xuddi o'shanaqa vahimali maxluqlardek qing'ir-qiyshiq «qo'llari»ni cho'zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o'xshar edi. Qiyoslang: Akamning allaqaysi kitobida olti qo'lli odamning rasmini ko'rgan edim. G'ira-shirada jiydalar misoli o'shanaqa vahimali maxluqlardek qing'ir-qiyshiq «qo'llari»ni cho'zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o'xshar edi.; Tarzanni bilasizmi? misli maymundek daraxtdan-daraxtga sakraydi.

Xuddi yuklamasi matn tarkibida o'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalab keladigan -dek, -day, -dayin, -aqa kabi qo'shimchalar hamda singari, o'xshash so'zlari bilan birga qo'llanilgan o'rinlarga ham duch kelamiz. 1) —**dek bilan**: Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. (O'.Hoshimov). 2) —**day bilan**: Onam norozi qiyofada yelkasini qisdi. — Mana shu bolamga pufayka olib bermoqchiman. Adasi besh yuzdan kamiga ko'nma deganlar. — Gapga pasmatri! — dallol xuddi onam gunoh ish qilib qo'yganday qo'lini silkitdi. — Odamlardayam diyonat qolmapti o'zi!

(О'.Hoshimov). 3) **-aqa bilan:** Akamning allaqaysi kitobida olti qo'lli odamning rasmini ko'rgan edim.G'ira-shirada jiydalar xuddi o'shanaqa vahimali qing'ir-qiyshiq «qo'llari»ni cho'zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o'xshar edi.(O'.Hoshimov). 4) **singari bilan:** Uning moli xuddi magazindagi singari qat'iy narx bilan sotiladi.; Dalavoyning ko'zlarida rosmana vahshiy o't yonar, o'zining labi ham xuddi otiniki singari ko'pirib ketgan edi.(O'.Hoshimov). 5) **o'xshash so'zi bilan:** Xuddi o'zimning gurji kuchugimga o'xshash kichkina, faqat qora emas, oppoq ekan.(O'.Hoshimov). Yuqoridagi keltirilgan misollardan shunday xulosa qila olamizki, xuddi yuklamasi o'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalab keluvchi turli vositalar bilan yonma-yon kelganida jumla tarkibidan anglashilayotgan o'xshatish, qiyoslash ma'nosini ta'kidlab, bo'rttirib, kuchaytirib keladi. Bu yuklama nutq uslublaridan so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda faol qo'llanilib, ilmiy uslubda esa xuddi yuklamasi nisbatan kam ishlatiladi. Rasmiy uslubda deyarli ishlatilmaydi desak ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. – 418 b.
2. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2011. –160 б.
3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
4. Ўзбек тили граматикаси.1- том.-Б. 580-581
5. Шоабдурахмонов Ш. Ва бошқ. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Б.437
6. Турсунов У. Ва бошқ. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. – Б.390
7. Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик–грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 112 б.
8. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умирлар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – 146 б.

Internet resurslar

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.ziyouz.uz/>